

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikasiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitusiyaviy qonunchilikning rivojlanish marralari.....	132
M.Kenjayeve	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari.....	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 94(575.1)"14/15":930.85(092)

BADRIDDIN AL-AYNIY VA UNING AMIR TEMUR HAQIDA QARASHLARIGA UMUMIY TAVSIF**A GENERAL ASSESSMENT OF BADR AL-DIN AL-AYNI'S PERSPECTIVES ON AMIR TIMUR****ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВЗГЛЯДОВ БАДР АД-ДИНА АЛЬ-АЙНИ О АМИРЕ ТИМУРЕ****Turg'unboyev Zaylobiddin Shohobiddin o'g'li**
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi**Annotatsiya**

Badriddin al-Ayniy (1361–1451) — Misrda faoliyat yuritgan yirik fiqhshunos va muarrixlardan biri bo'lib, o'zining keng qamrovli tarixiy asarlarida Movarounnahr hududidagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarga alohida e'tibor bergan. Ayniqsa, Temuriylar davriga oid ma'lumotlar al-Ayniy asarlarida puxta tahlil qilingan. Uning *"Iqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman"* ("Zamondoshlar tarixi haqida dur marjonlar") nomli asarida Amir Temur va uning vorislarining siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Al-Ayniy Temurni mohir sarkarda, adolatli hokim sifatida tasvirlaydi. U Samarqanddagi obodliklar, madrasa va kutubxonalar haqida ijobiy fikr bildirgan. Shuningdek, uning *"Iqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman"* asarida Temuriylar sulolasining Misr va boshqa mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ayniy bu asarlarida Movarounnahr hududidagi siyosiy barqarorlikni islomiy dunyoning boshqa mintaqalari bilan solishtirib, bu erda ilm-fan, madaniyat va iqtisodiyotning rivojlanganini e'tirof etadi. Ayniy yondashuvda tarixiy voqealarga nafaqat xolis tarixchi sifatida, balki fiqhshunos va din peshvosi sifatida ham yondashgan. U uchun adolatli boshqaruv, diniy qadriyatlarning saqlanishi va ilm-fanga e'tibor asosiy mezon bo'lgan. Shuning uchun u Movarounnahrni o'sha davrda musulmon dunyosining eng nufuzli ilmiy markazlaridan biri sifatida tasvirlaydi.

Abstract

Badr al-Din al-Ayni (1361–1451) was a prominent jurist and historian who worked in Egypt. In his extensive historical works, he paid special attention to the political, cultural, and social developments in the region of Transoxiana. Al-Ayni provides a thorough analysis of the Timurid era. His work *"Iqd al-Juman fi Tarikh Ahl al-Zaman"* ("Pearls on the History of Contemporaries") offers detailed accounts of Amir Temur and his successors' political activities, military campaigns, governance, and contributions to the advancement of science and culture. Al-Ayni portrays Temur as a skilled commander and a just ruler. He speaks positively about the prosperity of Samarkand, its madrasahs, and libraries. The work also contains valuable information on the Timurid dynasty's diplomatic relations with Egypt and other countries. Al-Ayni compares the political stability of Transoxiana with other regions of the Islamic world and acknowledges the region's advanced development in science, culture, and economy. His approach combines that of an impartial historian and a religious scholar. Justice in governance, preservation of religious values, and support for knowledge were key criteria for him. Therefore, he describes Transoxiana as one of the most influential scientific centers in the Muslim world of that time.

Аннотация

Бадр ад-дин аль-Айни (1361–1451) — один из выдающихся правоведов и историков, действовавших в Египте. В своих обширных исторических трудах он уделил особое внимание политическим, культурным и социальным процессам в Мавераннахре. Особенно подробно аль-Айни анализировал события эпохи Тимуридов. В его произведении *«Икд аль-Джуман фи Тарих ахль аз-Заман»* («Жемчужины о современниках») широко освещается политическая деятельность, военные походы, государственное управление и вклад в развитие науки и культуры Амира Темура и его потомков. Аль-Айни изображает Темура как талантливого полководца и справедливого правителя. Он положительно отзывается об устройстве Самарканда, медресе и библиотеках. Также в этом труде приведены ценные сведения о дипломатических отношениях династии Тимуридов с Египтом и другими странами. Аль-Айни сравнивает политическую стабильность в Мавераннахре с другими регионами исламского мира и признаёт высокий уровень развития науки, культуры и экономики в этом регионе. В своём подходе он выступает не только как объективный историк, но и как исламский правовед и религиозный деятель. Для него важны были справедливое управление, сохранение религиозных ценностей и внимание к науке. Поэтому он описывает Мавераннахр как один из самых влиятельных научных центров мусульманского мира своего времени.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Badriddin al-Ayniy, Samarqand, Arab, Islom dini, harbiy strategiya, diplomatiya, tinchlik bitimi, madrasa, kutubxona.

TARIX

Key words: Amir Temur, Badr al-Din al-Ayni, Samarkand, Arab, Islam, military strategy, diplomacy, peace treaty, madrasa, library.

Ключевые слова: Амир Темур, Бадр ад-Дин аль-Айни, Самарканд, арабы, ислам, военная стратегия, дипломатия, мирный договор, медресе, библиотека.

KIRISH

Amir Temur o'zi yashagan davrdagi siyosiy iqlimga juda katta ta'sir etgan. U tashkil etgan buyuk saltanat Sharqning juda katta hududlarini jumladan Yaqin Sharqni ham qamrab olgan. Bu esa juda ko'plab mamlakatlar tarixchilari tomonidan Amir Temur tarixiga murojaat qilishiga sabab bo'lgan. Jumladan, Amir Temurning 7 yillik yurishlari natijasida Yaqin sharqqa kirib borishi va arab diyorlarini bir qismini zabt etishi u haqidagi arab tilidagi manbalarning ko'payishiga olib kelgan. Ko'plab arab tarixchilari aynan shu munosabat bilan Amir Temur tarixini o'rganganlar va uning arab diyorlariga qilgan yurishlarini batafsil yoritganlar. Mana shunday mualliflardan biri Badriddin Al Ayniydir. Unga Amir Temurning Yaqin Sharqqa qilgan yurishlarini o'rganish va tasvirlash qulay edi. Chunki u ushbu voqealarni bir qismini ko'rganlar bilan gaplashgan.

Badriddin al-Ayniy Amir Temurning Yaqin Sharqdagi harbiy yurishlarini birlamchi manbadan kuzatgan tarixchi sifatida Temurning shaxsiyati va harbiy strategiyasini o'zining mashhur "*lqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman*" ("Zamondoshlar tarixi haqida dur marjonlar") asarida chuqur tahlil qiladi. Ushbu asarda u Temurning Damashq, Bag'dod, Halab kabi shaharlarga yurishlarini faqat voqea bayoni tarzida emas, balki ularning sabab-oqibat munosabatlari, siyosiy natijalari va madaniy aloqalarga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganadi.[1,1] Ayniy, ayniqsa, Temurning Misr va Mamluk sultonligi bilan olib borgan diplomatik muloqotlarini, ularda siyosiy donolik, shariat doirasidagi yondashuv va kuch bilan diplomatiyaning uyg'unlashganini alohida e'tirof etadi. Temurning ilm-fanga, ulamolar va faqihlarga e'tibor bilan yondashgani, Samarqandda madrasa va kutubxonalar qurdirgani haqidagi ma'lumotlar orqali al-Ayniy uni faqat harbiy arbob emas, balki islomiy an'analarni qo'llab-quvvatlagan, adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdor sifatida taqdim etadi. [2,1]

Badriddin al-Ayniy o'z asarida Temurning shaxsiy fazilatlarini, ya'ni unga xos sadoqat, harbiy fidoyilik, dushman ustidan zafardan so'ng ko'rsatgan bag'rikenglik kabi jihatlarni ham ajratib ko'rsatadi. Shu boisdan, "*lqd al-juman*" nafaqat tarixiy voqealarning yozma qaydi, balki siyosiy-falsafiy mulohazalarga boy, chuqur tahliliy manba sifatida tarixiy adabiyotda alohida o'rin egallaydi.

Bu asar o'z davridayoq keng tarqalib, bir qancha yirik musulmon tarixchilarining qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, ayniycha yondashuvlardan ta'sirlangan tarixchilardan biri Ibn Hajar al-Asqaloni (1372–1449) bo'lib, u hadis va tarix fanlaridagi asarlarida ayni Ayniyning voqelikka xolis va diniy mezon asosidagi yondashuvini davom ettirgan.[3,111]

Yana bir mashhur tarixchi — Shamsuddin as-Saxoviy (1427–1497) ham "*lqd al-juman*" dan foydalanganini o'z asarlarida ochiq bildirgan. U aynan Ayniydan iqtiboslar keltirib, Temuriylar davridagi voqealarni tahlil qilgan. Ayniy asarlari, shuningdek, Damashq va Qohirada faoliyat yuritgan tarixchi va fiqhshunos doiralarida ham keng muhokama qilingan bo'lib, ular orasida al-Maqriziy (1364–1442)ning izohlarida ham Ayniy asarlariga havolalar uchraydi.[4,76]

Shunday qilib, "*lqd al-juman*" nafaqat Amir Temur tarixini o'rganishda birlamchi va ishonchli manba sifatida xizmat qilgan, balki o'zidan keyingi arab va musulmon tarixchiligi rivojiga uslubiy va mazmuniy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu asar orqali Badriddin al-Ayniy tarixga yondashishda diniy tafakkur, siyosiy tahlil va madaniy ongni uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan, shuning uchun ham u musulmon tarixchiligi an'analari alohida maqomga ega bo'lgan muarrix sifatida tan olingan.

Badriddin al-Ayniy (to'liq ismi: Abu Muhammad Mahmud ibn Ahmad ibn Musa al-Ayniy, taxallusi Badriddin) — XIV–XV asrda yashab o'tgan mashhur hanafiy faqihi, tarixchi va muhaddisdir. U hijriy 762-yilda (1361/62) Aynatob shahrida tug'ilgan va 855-hijriy (1451) yili Qohirada vafot etgan. Ayniy Misr, Shom, Halab va Qohira kabi yirik ilmiy markazlarda tahsil olgan, Zohiriyya va Muayyidiyya madrasalarida fiqh va hadis fanlaridan dars bergan. Uning otasi Shihobuddin Ahmad ham qozilik martabasiga etgan, ilm ahliga hurmatli shaxs bo'lgan. [5,116]

Ayniy o'z zamonasida hadis, fiqh va tarix sohalarida yuksak obro' qozongan. U Azhar madrasasida dars bergan, Mamluklar saroyida davlat ishlarida ishtirok etgan. Hayoti davomida u ko'plab ilmiy safarlarda bo'lgan, Misr va Shomdagi siyosiy voqealarning bevosita guvohi bo'lgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri — "*lqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman*" bo'lib, bu tarixiy manbada ayniqsa Temuriylar davri, xususan Amir Temurning Damashq yurishi (1400–1401) va Mamluklar

bilan munosabatlari chuqur yoritilgan. Ayniy Amir Temurga nisbatan tarixchi, fiqhshunos va davlat arbobi sifatida ko'p qirrali va adolatli yondashgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badriddin al-Ayniy (1361–1451) Amir Temur haqida yozgan tarixiy mulohazalari bilan arab tarixshunosligida muhim iz qoldirgan. Ayniy o'z davrining yirik tarixchisi bo'lishi bilan birga, fiqhshunos va davlat arbobi sifatida ham tarixga yondashgan. U Amir Temurning Yaqin Sharqdagi yurishlariga bevosita guvoh bo'lgan va bu voqealarni o'zining mashhur *“Iqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman”* (“Zamondoshlar tarixi haqida dur marjonlar”) asarida batafsil yoritgan. Asar nafaqat Temurning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyatini, balki uning shaxsiy fazilatlarini, adolatli boshqaruvi, ilm-fan va madaniyatga bo'lgan munosabati, musulmon dunyosidagi diplomatik aloqalari kabi jihatlarni ham chuqur tahlil qiladi.

Ayniyning bu asari keyingi tarixchilarning ishlari uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, Misr va Shom tarixshunoslik maktablarida al-Ayniyning yondashuvi katta e'tibor qozongan. Uning qarashlaridan ta'sirlangan mashhur tarixchilardan biri Ibn Tangriberdi (1411–1470) bo'lib, u o'zining *“an-Nujum az-zahira fi muluk Misr wa'l-Qohira”* asarida al-Ayniyning tarixiy metodologiyasiga tayanadi. Ibn Tangriberdi bevosita al-Ayniydan ta'lim olgan bo'lib, o'z ustozining voqelarga yondashuvi, tafsilotlarga berilishi va siyosiy hodisalarni diniy mezonlar bilan tahlil qilish uslubini davom ettirgan. [6,202]

Shuningdek, boshqa bir yirik tarixchi Ibn Hajar al-Asqaloni (1372–1449) ham Ayniyning tarixiy qarashlaridan foydalangan. U asosan hadis ilmi bo'yicha mashhur bo'lsa-da, tarixiy yozuvlarida ayniycha ishonchli rivoyatlarni qo'llagan. Ibn Hajar o'z asarlarida Temurning arab yurishlarini bayon etishda al-Ayniyning dalillariga murojaat qilgan. Uning zamondoshi Shams ad-Din as-Saxoviy (1427–1497) ham al-Ayniy asariga ko'p bor ishora qilgan bo'lib, u *“al-I'lam bi man ruwiya 'anhu al-ahādith”* asarida Ayniyning tarixiy shaxs sifatidagi salohiyatini alohida e'tirof etadi. [7]

Ayniyning Amir Temurga bergan bahosi — uni nafaqat harbiy yurishlarda g'alabaga erishgan sarkarda, balki musulmon olamida adolat va ilm-fan homiysi sifatida tasvirlash — ko'plab tarixchilarda ijobiy taassurot qoldirgan. Ayniy Temurning Misr va boshqa arab o'lkalaridagi siyosiy aloqalarini yoritishda nafaqat voqeani bayon etgan, balki bu aloqalarning tarixiy, huquqiy va diniy asoslarini ham ko'rsatishga harakat qilgan. Bu esa keyingi tarixchilarga voqealarga ko'p qirrali yondashish uslubini o'rgatgan.

Ayniyning bu asari arab tarixshunosligida shunchalik muhim o'rin tutganki, undan hatto al-Maqrizi (1364–1442) kabi nufuzli tarixchilar ham bevosita yoki bilvosita foydalangan. Garchi Ayniy va al-Maqrizi o'rtasida ba'zi qarama-qarshiliklar bo'lgan bo'lsa-da, ular o'zaro bir-birining ilmiy yondashuviga e'tibor berganlar. Ayniy voqealarni bevosita guvoh sifatida yozgan bo'lsa, Maqrizi ularni yanada umumlashtiruvchi tarixiy yondashuv bilan davom ettirgan.

Xulosa qilib aytganda, Badriddin al-Ayniyning Amir Temur haqidagi qarashlari arab tarixshunosligida muhim burilish yasagan. Uning *“Iqd al-juman”* asari nafaqat o'z davrida, balki undan keyingi asrlarda ham tarixchilarning e'tibor markazida bo'lib kelgan. Ayniy tarixni faqat xronologik ketma-ketlikda emas, balki huquqiy, diniy, siyosiy va madaniy kontekstda tahlil qilgan ilk tarixchilardan biri bo'lib, aynan shu jihati bilan u tarixshunoslik metodologiyasida yangilik kiritgan muarrix sifatida tan olingan.

Badriddin al-Ayniyning *“Iqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman”* asari Temuriylar tarixini, ayniqsa Amir Temurning Yaqin Sharq yurishlarini o'rganishda muhim bir birlamchi manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniy nafaqat voqealarga zamondosh bo'lgan, balki ularni tafsilotlari bilan hujjatlashtirib qoldirgan tarixchi sifatida ajralib turadi. Asarda ayniqsa 1400–1401 yillardagi Temurning Damashq yurishi keng yoritiladi. Bu yurish natijasida Mamluklar hukmronligi ostidagi Damashqda katta sarosima yuzaga kelgani, shahar aholisi orasida vahima boshlanganini, ulamolar va nufuzli shaxslar Temur bilan sulhga erishishga harakat qilganini Ayniy batafsil yozadi. U nafaqat harbiy holatni, balki diplomatik muzokaralar jarayonini ham aniq shaxslar, vaqt va joylar bilan tasvirlab bergan. Jumladan, Temur huzuriga borgani aytilgan Damashqning mashhur ulamolari va zodagonlari ro'yxati ham keltirilgan bo'lib, bu tafsilotlar ayniy asarning tarixiy ishonchliligini oshiradi. [8,105]

Ayniyning yondashuvi Temur siymosini ham o'ziga xos tarzda aks ettiradi. U Amir Temurni shafqatqiz istilochi emas, balki siyosiy hikmat egasi, tartib-intizomni qadrllovchi, diniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi arbob sifatida ko'rsatadi. Ayniy Temurning harbiy iste'dodi, ayniqsa strategik rejalashtirish va kuch bilan diplomatiyani uyg'unlashtira olgan siyosiy tafakkuri haqida iliq fikr

TARIX

bildiradi. Uning Damashq va Bag'doddagi yurishlari vaqtida ulamolarni himoya qilgani, kutubxonalarni talashga yo'l qo'ymagani, ilm ahliga hurmat ko'rsatgani haqida yozilgan fikrlar ayni paytda Temurning madaniy va dini merosni qadrlaganini ko'rsatadi.

Ayniy asarida Mamluk amirlarining Temur oldidagi ojiz holati ham realistik tarzda yoritilgan. Ular tomonidan yuborilgan sovg'a-salomlar, muvaqqat tinchlik bitimlari va qo'rquv aralash diplomatik muloqotlar orqali Ayniy Temurning siyosiy ustunligini ochib beradi. Bu holat Ayniy tomonidan Mamluklar tarixini yozgan boshqa muarrixlar, jumladan Ibn Taghribirdi va al-Maqrizi asarlaridagi izohlar bilan qiyoslab tahlil qilinganida Temurning nufuzi va ta'sir doirasi yanada yaqqol ko'rinadi.

Shu jihatdan qaralganda, *"Iqd al-juman"* nafaqat voqea tafsilotlarini hujjatlashtirgan, balki Temuriylar siyosatini chuqur tahlil qilgan asar sifatida o'z davridagi va keyingi arab tarixshunosligiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniy yondashuvi, ayniqsa Temur shaxsiyatiga nisbatan adolatli va ko'p qirrali qarashi, Ibn Hajar al-Asqalaniy, Ibn Tangribirdi va Shamsaddin as-Saxoviy kabi tarixchilar tomonidan davom ettirilgan. Bu tarixchilar o'z asarlarida Temurning arab diyorlariga yurishlarini aynan Ayniyning asosiy tavsifi asosida yoritishgan va unga iqtiboslar keltirishgan. [9]

Shu bilan birga, Badriddin al-Ayniyning *"Iqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman"* asari Temuriylarga oid ma'lumotlarning nafaqat ishonchli tarixiy manba sifatidagi, balki o'rta asr arab tarixshunosligining metodologik yondashuvini ochib beruvchi vosita sifatidagi ahamiyatini ham namoyon qiladi. Ayniy voqealarni yoritishda ko'pincha bevosita kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan, uning tasvirlari og'zaki rivoyatlar va saroydagi ichki manbalar bilan mustahkamlangan. Temurning Damashq yurishi, ulamolar va san'atkorlarga nisbatan ko'rsatgan hurmati, diniy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyotkorligi, bir tomondan, uni musulmon hukmdori sifatida ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shaharlarni vayron qilish va aholining ko'chirilishiga oid tanqidiy qarashlar orqali muallif voqealarga xolis yondashganini ko'rsatadi. Al-Ayniy Temurga nisbatan arab tarixiy tafakkurida shakllangan ko'p qirrali, murakkab munosabatni yorqin tarzda ifoda etgan. Bu jihatlari bilan u nafaqat o'z zamondoshlari — al-Maqriziy yoki Ibn Hajar al-Asqaloniy singari tarixchilar bilan muloqotda bo'lgan, balki ularning qarashlari fonida mustaqil yondashuvga ega tarixchi sifatida ajralib turadi. Ayniy asarlarini tahlil qilish Temuriylar tarixini nafaqat mahalliy, balki transregional kontekstda anglash imkonini yaratadi, bu esa tarixiy izlanishlar uchun muhim nazariy va empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Badriddin al-Ayniyning *"Iqd al-Juman fi Tarikh Ahl al-Zaman"* va *"Iqd al-Durar"* asarlarida Amir Temur siymosi uch qirrali tarzda namoyon bo'ladi: bir tomondan — kuchli sarkarda va siyosatchi; ikkinchi tomondan — islom tamaddunini qo'llab-quvvatlovchi, ulamolarga hurmat ko'rsatuvchi hukmdor; uchinchi esa — bosib olingan hududlarda yuz bergan vayronagarchiliklar va majburiy ko'chirishlarning salbiy oqibatlarini tanqidiy nuqtai nazardan yoritgan tarixchi. Bu ko'p qirrali tasvir al-Asqalaniy va al-Maqrizi kabi ko'proq betaraf yondashgan tarixchilardan farqli o'laroq, al-Ayniyning o'ziga xos tahliliy uslubini va voqealarga diniy hamda ma'naviy mezonlar asosida chuqur yondashishini yaqqol ko'rsatadi. [10,340]

Manbashunoslik nuqtai nazaridan, al-Ayniy tarixiy fakti birlamchi guvohlikka, samoviy rivoyatlarga, saroydagi voqealarga va shaxsiy boshdan kechirganlari haqidagi xotiralarga asoslab rivoyat qiladi. Bu esa uning tarixiy ishonchliliigi va metodologik kuchini ko'rsatadi. Ayniqsa, 1400–1401 yillardagi Damashq yurishi haqida bergan faktlarida Ayniyning shahar aholisining vahimali kayfiyatini, ulamolar va san'atkorlarning Temur bilan siyosiy muzokaralarga qo'shilishini aniq shaxslar va voqealar asosida yoritishi tarixshunoslikda noyob adabiy namunadir. Ayniyning diniy nuqtai nazardan yondashuvi ham muhimdir: u Temurning shariy qonunlarga, ulamolarga hamda ilm-fan va madaniyatga bo'lgan hurmatini ijobiy baholaydi. Shu bilan birga, Temur tomonidan bir vaqtlar vayron qilingan shaharlar va majburiy ko'chirish siyosatini tanqidiy ohangda tasvirlaydi. Bu jihatlari *"Iqd al-Jumān"* asarini faqat siyosiy tarix emas, balki islomiy axloq, "maslaha" (jamo manfaatini ko'zlash) va adolatli boshqaruv tushunchalari bilan bog'langan tarixiy manbaga aylantiradi.

Tahliliy nuqtai nazardan qaralganda, al-Ayniyning tarix yozish uslubi o'ziga xos bo'lib, u voqealarga nisbatan tarixiy ob'ektivlikka intilgan, biroq diniy va ijtimoiy qadriyatlardan butunlay chetlanmagan. Uning yondashuvi Ibn Hajar al-Asqalaniy va al-Maqriziy kabi zamondosh tarixchilar bilan ilmiy muloqotda (o'zaro ta'sirda) bo'lgan. Xususan, al-Asqalaniy bilan munosabatlarida 1426 yil fevraliga qadar davom etgan nisbatan betaraf pozitsiyadan keyinchalik yanada tahliliy va tanqidiy yo'nalishga o'tishi kuzatiladi. Ayniqsa, al-Ayniyning Mamluk hukmdorlari — Zohir Barquq va Barsboy bilan bo'lgan diplomatik muzokaralar tafsilotlarini tasvirlashidagi ayrim noaniqliklar (masalan,

muayyan davrdagi siyosiy tangliklar yoki shaharlar mudofaasiga oid qarorlarning qabul qilinishi) tarixshunoslikda murakkab va ko'p ovozli diskursni yuzaga keltirgan. Bu holat Ayniyni matnlarida voqealarning faqat rasmiy talqini emas, balki turli nuqtai nazarlarni o'zida jamlagan ko'p qatlamli tarixiy manzara mavjudligini ko'rsatadi. [11, 194]

Shunday qilib, al-Ayniyni Temuriylar tarixini o'rganishda manba sifatida ishlatilishi, o'sha davr arab tarixshunosligidagi murakkab muloqot, diniy-siyosiy mezonlar va guvohlikka tayangan metodologiyani o'ziga xos jihatlarini ochib beradi. Uning yondashuvi orqali nafaqat Amir Temurning siyosiy-obodkor arbob sifatidagi qiyofasi, balki Temuriylarning arab dunyosiga ta'siri, ular bilan muzokaralar va bahs-munozaralar qay tarzda bo'lganligi ham aniq ko'z oldimizga keladi. Bu esa Temuriy tarixni transregional kontekstda chuqurroq anglashni, ham tarixshunoslik, ham siyosiy etika nuqtai nazaridan boy ma'lumotlar bazasini yaratadi.

XULOSA

Badriddin al-Ayniy o'z davrining yirik tarixchilaridan biri sifatida Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini o'rganishda o'ziga xos, ko'p qirrali va mukammal yondashuvni namoyon qilgan. Uning "*lqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman*" asari nafaqat voqealarni bayon etish, balki ularning siyosiy, diniy, madaniy va ijtimoiy kontekstini chuqur tahlil qilish jihatidan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniy Temurni buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tasvirlar ekan, uni islomiy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, ilm-fan va madaniyat rivojiga homiylik qiluvchi shaxs sifatida ham ko'rsatadi. Bu yondashuv uning fiqhshunoslikdagi chuqur bilimlari, diniy tafakkuri va tarixiy voqealarni xolis tahlil qilish mahoratining uyg'unlashgan natijasidir. Ayniyni tarixshunoslikdagi o'rni shundaki, u Temuriylar tarixini faqat Markaziy Osiyo hududi ichki manbalari orqali emas, balki musulmon dunyosining boshqa yirik intellektual markazlari — Qohira, Damashq, Makka kabi shaharlardagi tarixiy an'ana va kuzatuvlar asosida yoritadi. Shu bois uning asarlari o'sha davr voqealariga transregional va tamaddunlararo nuqtai nazardan baho berish imkonini beradi. Ayniy keltirgan ma'lumotlar Temurning Damashq, Halab va Bag'doddagi harbiy yurishlari, diplomatik siyosati, ulamolar va san'atkorlarga bo'lgan munosabati, shuningdek, uning islom dini va musulmon jamoasidagi mavqeiga oid boy dalillarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlar Ayniyni asarlarini oddiy tarixiy xronikadan ko'ra kengroq — o'rta asr musulmon tafakkuri, siyosiy-diniy qarashlar va tarixiy ongning shakllanish jarayonini aks ettiruvchi noyob manba darajasiga ko'taradi. U o'z asarida Temur siymosiga nisbatan musulmon ummatining murakkab va ko'p qatlamli munosabatlarini ifoda etadi: bir tomondan, Temur qudratli g'olib va adolatli hukmdor sifatida e'tirof etilsa, boshqa tomondan, uning siyosiy yurishlari va hududiy kengayish siyosati turli hududlarda turlicha talqin etilgan. Shu sababli, Badriddin al-Ayniy merosi bugungi tarixshunoslik uchun nafaqat faktologik ma'lumotlar ombori, balki o'rta asr musulmon dunyosida Temuriylar merosining qanday qabul qilinganini tushunishga xizmat qiluvchi intellektual manba sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Uning asarlaridan foydalanish Temur shaxsiyatini faqat harbiy va siyosiy faoliyati doirasida emas, balki diniy-ma'naviy, madaniy va diplomatik jihatlarida ham kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, al-Ayniy asarlariga tayangan holda Temuriylar tarixini mahalliy, mintaqaviy va global islomiy kontekstlarda solishtirma o'rganish mumkin bo'ladi. Bu yondashuv esa Amir Temur shaxsiyatini xolis, obyektiv va ko'p qirrali tarzda yoritishga, shuningdek, uning merosini zamonaviy tarixshunoslikdagi baholash mezonlariga mos ravishda talqin etishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Badr al-Din al-Ayni, *lqd al-juman fi tarikh ahl al-zaman* (Qohira: Dar al-Kutub, n.d.); Beatrice Forbes Manz, *The Rise and Rule of Tamerlane* (Cambridge: Cambridge University Press, 1989).
2. Badr al-Din al-Ayni, *al-lqd al-Durar* (Qohira: Maktabat al-Khaniji, n.d.); Beatrice Forbes Manz, *The Rise and Rule of Tamerlane* (Cambridge: Cambridge University Press, 1989).
3. Ibn Hajar al-Asqaloni. *Al-Durar al-Kamina fi A'yan al-Mi'a al-Samina*. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1993.
4. Al-Maqriziy, Taqiy al-Din. *Kitob al-Suluk li Ma'rifat Duval al-Muluk*. Qohira: Al-Hay'a al-'Ammah li Shu'un al-Matobi' al-'Ammah, 2002.
5. Ibn Xaldun. *Al-Muqaddima*. Bayrut: Dar al-Fikr, 2004.
6. Barthold, V. V. *Sochineniya*. II tom, I qism: *Timur va uning vorislari*. Moskva: Nauka, 1964.
7. Manz, B. F. *Temurning yuksalishi va hukmronligi*. Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
8. Bosworth, S. E. "Temur." *Islom ensiklopediyasi*, yangi nashr, X jild, 484–490-betlar. Leyden: Brill, 2000.
9. Zimonyi, István. *Mo'g'ullar va tatarlar tarixi bo'yicha musulmon manbalari*. Budapesht: Gumanitar fanlar tadqiqot markazi, 2020.